



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA
VAZIRLIGI HUZURIDAGI BOJXONA QO‘MITASI**

CUSTOMS COMMITTEE UNDER THE MINISTRY OF ECONOMY AND FINANCE
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi 3. tel. (55) 502-76-00, www.bojxona.uz, customs@exat.uz, info@customs.uz

2026-yil 1-iyul

02-05/12-8011-son

**Bojxona brokerlari
uyushmasi**

*Toshkent sh., Yashnobod tumani,
Farg‘ona yo‘li ko‘chasi, 23 uy*

Bojxona brokerlari uyushmasi a‘zolari hamda bojxona brokerlari vakillari bilan bo‘lib o‘tgan ochiq muloqotda Bojxona brokerlari uyushmasi rais o‘rinbosari E.Xalilov tomonidan tovarlarni olib chiqish ustidan nazorat qilish tartiboti bo‘yicha berilgan savollar yuzasidan quyidagilar ma‘lum qilinadi.

1. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi (keyingi o‘rinlarda – Kodeks deb yuritiladi)ning 32-moddasiga muvofiq, reeksport bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlar ushbu Kodeks 218-moddasining to‘rtinchi qismiga muvofiq belgilangan muddatlarda bojxona hududidan amalda olib chiqilishi kerakligi belgilangan.

Shuningdek, reeksport bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni bojxona hududidan amalda olib chiqish bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan kundan e‘tiboran olti oydan kechiktirmay amalga oshirilishi belgilangan.

Bundan tashqari, mazkur moddaga asosan agar tovarlar uchun tranzit deklaratsiyasi ular reeksport bojxona rejimiga joylashtirilgan kundan e‘tiboran uch ish kuni ichida taqdim etilmasa, tovarlar vaqtincha saqlash bojxona rejimiga joylashtirilishi kerakligi qayd etilgan.

Kodeksning 218-moddasidaga ko‘ra, tovar kelib tushadigan bojxona organiga tovarlarni yetkazib berishning eng ko‘p muddati quyidagi hisob-kitob bilan belgilanadigan muddatdan oshmasligi kerak:

havo transporti uchun — uch kalendar kundan;

avtomobil va suv transporti uchun — o‘n kalendar kundan;

temir yo‘l transporti uchun — ikki ming kilometr uchun o‘ttiz kalendar kundan.

Bugungi kunda, reeksport bojxona rejimida tovarlarni olib chiqish muddatlarini tartibga solish maqsadida Kodeksga o'zgartirish kiritish bo'yicha Qonun loyihasi ishlab chiqilmoqda.

2. Kodeksga muvofiq reeksport bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarga nisbatan tranzit deklaratsiyasi taqdim etilishi belgilangan. Biroq, eksport bojxona rejimida olib chiqiladigan tovarlarga nisbatan tranzit deklaratsiyasi taqdim etilishi nazarda tutilmagan.

Bugungi kunda reeksport bojxona rejimiga rasmiylashtirilgan tovarlarga nisbatan tranzit deklaratsiyasini taqdim etish amaliyotini bekor qilish bo'yicha Kodeksga o'zgartirish kiritish yuzasidan Qonun loyihasi ishlab chiqilmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olib, qonun hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritilgunga qadar eksport va reeksport bojxona rejimida olib chiqiladigan tovarlarni alohida rasmiylashtirish maqsadga muvofiqligi ma'lum qilinadi.

Raisning birinchi o'rinbosari



G'.Nasirov

Ijr.: S.Karimov

Tel: (55) 502-76-00 (74-27)